

OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOKORREKSIYASI

Suloymonova Shohsanam Abdurashid qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Pedagogika Psixologiya fakulteti 2-bosqich Talabasi:

Ilmiy Rahbar: Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Annotatsiya: Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uni asosiy tamoyillari to'g'risida tushuncha berish, milliy g'oya va shaxs tarbiyasida oilaning roli haqida tushuncha berish orqali talabalarni axloq-odob tarbiyasini shakllantirish, oila psixologiyasi to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish, bo'lajak pedagog-psixologlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. Ushbu maqolada oila to'g'risidagi umumiy tassavurlar hamda yosh oiladagi er-xotin munosabatlarning psixologik xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit sozlar: Psixologiya, psixokorreksiya, oila, oila siyosati, milliy g'oya, oilani mustahkamlash siyosati, asosiy tamoyillar, psixokorreksiya, onalik va bolalik.

KIRISH

Psixologik tuzatish (psixokorreksiya) — psixologik yordam turlaridan biri (boshqalar qatorida: psixologik maslahat, psixologik trening, psixoterapiya); psixologik rivojlanishning optimal modelga mos kelmaydigan xususiyatlarini maxsus psixologik ta'sir vositalari yordamida tuzatishga qaratilgan faoliyatdir. Shuningdek — insonda uning ijtimoiylashuvi va o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashishini oshirish uchun zarur psixologik fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatning turli davrlarida oila masalasi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlari va davlat arboblari – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Shal (Tilyeuke) Kulkeo'g'li, Ahmad Donish, Abay Qo'nanbayev, Rizouddin ibn Faxruddin, Faxr-ul Banot Sibg'atulloh qizi, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi oila-nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi haqida g'oyatda ibratli maslahat va o'gitlari bayon etilgan. Zamonaviy psixologiyada o'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlar tahlilini umumlashtirish va tizimlashtirish oilaga moslashuv tushunchasiga aniqlik kiritish, uning xususiyatlarini ajratish imkonini beradi. Oila kichik guruh sifatida unga xos ba'zi bir tavsiflarga ega, oiladagi moslashuv jarayonini o'rganishda ijtimoiypsixologik moslashuvning namoyon bo'lish qonuniyatlari ham ko'zga tashlanadi. L.Y.Gozman va Y.E.Aleshina oilani boshqa kichik guruhlardan ajratib turuvchi quyidagi tomonlarini ko'rsatib o'tadilar: 1. Oilaning normativ berilganligi, ya'ni oila normativ

rejada maksimal darajada nazorat qilinadigan hisoblanadi; 2. Oila tarkibining geterogenligi; 3. Guruhning yopiqqligi; 4. Guruhning ko'p funkcionalligi; 5. Oila tarixining davomiyligi; 6. Totallik – insonning oilaviy munosabatlarga to'liq jalb etilishidir. Bir qator mualliflar er-xotinlarning bir-biriga psixologik mosligi moslashuv jarayonining ham sharti, ham natijasi ekanligini e'tirof etadilar. Er-xotinlarning bir-biriga mosligi muammosiga 3 ta asosiy yondashuvni ajratish mumkin: tarkibiy, funkcionallik va adaptiv. Tarkibiy yondashuv doirasida er-xotinning bir-biriga mosligi deganda, sheriklarning shaxsiy va individual-tipologik xarakteristikalarining muvofiqligi tushuniladi." Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir".R.Kappenberg degan olimning ta'kidlashicha, ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulodda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida shok ziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda ro'y beradigan holatlarning oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar. Masalan, er-xotinlardan birining xiyonati va uning oshkor bo'lib qolishi, o'g'ilning noqobil bo'lib giyohvand moddalar iste'mol qilishini kattalar bilib qolishlari, oila a'zolaridan birining boshqa jinoyat yo'lga kirib qolishi, falokatlar va shunga o'xshashlar oilaviy munosabatlarning to'satdan o'zgarishi, munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunda ham oiladagi kattalarning oqilligi, mahallaning hamjihatligi ijobiy rol o'ynashi mumkin. Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida. Tadqiqotlarda eng muhim metodologik tamoyil shundan iborat boladiki, oilani organayotgan shaxs uni oddiy oila azolari yigindisi sifatida emas, balki barcha oila azolari ortasida murakkab va serqirra munosabatlar tizimi mavjudligini, ular har bir azoning berajak javoblarida aks etishini unutmaslik kerak. Yani, oila va undagi munosabatlar hamisha tashqi psixologik tasiri komida boladi. Unga kichik ijtimoiy guruh sifatida qarash esa, kichik guruhga xos bolgan deyarli barcha ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning borligi va ular har bir oila azosining maqomini belgilashini inobatga olishni taqozo etadi. Aslida umuman jamiyat miqyosida olib qaralganda, oila, ayrim olimlar (G.M.Andreyeva, A.I.Zaxarov, V.S.Toroxtiy, N.YA.Soloveva va boshqalar) ning haqli etirof etishlari boyicha, bu birlamchi guruhdir. Yani, birlamchi guruhga xos bolgan emotsionallilik, munosabatlarda rasmiylik va norasmiylikning uygunlashuvi, ijtimoiy-psixologik muhitning insoniy munosabatlarga bogliqligi va h-zolar oilaviy munosabatlarga ham xosdir.

Baxtli oila masalalari bilan shugullangan yetakchi sotsiolog va psixolog olimlar uning 11 ta eng muhim shart-sharoitlari mavjudligini aniqlaganlar:1.Er-xotinning ozaro bir-birini tushunishi.2.Alohida uy-joyning mavjudligi.3.Moddiy jihatdan yaxshi taminlanganlik.4.Farzandlar.5.Nikoh mustahkamligiga ishonch.6.Oilada bosh vaqtni qiziqarli otkazish.7.Oziga yoqqan ish bilan taminlanganlik.8.Malumatning mosligi.9.Ish joyining qulayligi.10.Yaxshi dostlarning mavjudligi.11.Er-xotinning erkinligi.

Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va konikmalar shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir. Oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari oila psixologiya kursining predmetini tashkil qiladi. «Oila psixologiyasi» kursini yoshlarga oqitishning dolzarbligini ifodalovchi asosiy omil. Oila psixologiyasi kursining vazifalari quyidagilardan iborat. Oilani shaxsning shakllanishidagi roli haqida yoshlarda tolaqonli tasavvur shakllantirish. Yoshlarni oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi va yuzaga kelgandan song oilaviy hayot davomida boladigan ozgarishlar haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar bilan tanishtirish. A. Grin o'zining asarlaridan birida — Bizning ichki dunyomiz qamdan-kam odamni qiziqtiradil, deydi. Er va xotin bir-birlarini juda yaxshi biladigan, tushunadigan – deb o'ylashadi. Aslida esa yaqin odamni ichki dunyosini ko'ra bilish uni tushunishni xohlashmaydi. Er va xotin turmush qurib, jismonan bir-biriga yaqinlashgani bilan qalban yaxshilik bu boshqa narsa. Bu yaqinlikka erishish uchun unga intilish, qiziqish va yaqin odami bilan doimo suhbatda bolish, suhbat orqali uni ichki dunyosiga kira olish kerak. Bu munosabatlar qiziquvchan, erkin va teng huquqli insonlar orasida paydo boladi.

V.A. Sisenko oilaviy munosabatlarni mustahkam yoki sustligini asosi er va xotin bir-birlarini konglini ola bilishidadir deb biladilar. Ularning bir-biriga bolgan mehrida, bir-birini hohlashida, tushunishida va oilada doimo yaxshi kayfiyat, kulgi bolishidadir.

Ota-ona va bola munosabatlarining xususiyatlari. Bolaning shaxsiyati va psixikasini shakllantirishda ota-onalarning roli. Oilaviy munosabatlarning eng tasirli, jozibali va muhim bolagi bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi. Bola tugilishining dastlabki onlarida ona va bola ozaro hissan va psixologik jihatdan boglangan bolib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qoshilib ketganlik, yaxlitlik) boladi. Bola ulgayib, katta bolgani sari ular ortasidagi masofa, psixologik distansiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi. Ota-ona va bola munosabatlari tipologiyasiga yondashuvlar. Ozbek oilasida bola tarbiyalashning ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibrat-namuna korsatish, yaxshi fazilatlarini mashq qilish, ragbatlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullar qollaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni takidlash kerakki ma'naviy barkamol, jismoniy sog'lom farzandlarni voyaga yetkazishda oilada amalga oshiriladigan axloq, odob tarbiyasining o'rni benihoya katta. Dunyoda shunday bir maskan borki, har birimiz unga intilamiz. Ishdan, mehnat jarayonlaridan shu oshiyon sari shoshamiz. Unda bizni chorlaydigan yaqinlarimiz mehri, umrimiz mazmuni bo'lgan jigargo'shalarimiz yurak tafti mujassam. Bu albatta oilamiz, xonadonimizdir. Oila deb ataluvchi mustahkam

qo'rg'onning ustuni ota bo'lsa, unga fayz kirituvchi onadir. Ona mehrining cheksizligi asrlar mobaynida o'z isbotini topgan. Dunyoda ona mehrining, ayol muhabbatining bahosini o'lchaydigan mezon, tenglashtiradigan boylik yo'q. Oila jamiyatning ajralmas bogini hisoblanadi. Oila muqaddas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абай Ибрагим Кунанбаев. Слова назидания. / Пер. с каз. – Алматы: “Рауан”,
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000. – 111 b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 1993. – 224 b.
4. Агеев В.С. Межгрупповое взаимодействие: Социальнопсихологические проблемы. – М., 1990. – 170 с.
5. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-qulub. – Toshkent.: 1966. y
6. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – М.: “Наука”, 1977. y
7. Ahmad Donish. “Navodir ul-vaqoe’”, – Dushanbe: “Donish”, 1989. – 339 b.
8. Анцупов, А. Я. Конфликтология. Учебник / А.Я. Анцупов, А.И. Шипилов- М.: *Питер*, 2015. - 528 с.
9. Beruniy. Minerologiya. – М.: – 1963. – 256 s.